

ABDULLA AVLONIY ADABIY MEROSINING BUGUNGI
TA'LIMDAGI AHAMIYATI ("TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ"
ASARI MISOLIDA)

Masharipova Yorqinoy Ravshanbek qizi

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida hayoti va ijodi bilan o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkor, ma'rifatparvar va o'zbek milliy pedagogikasining otasi hisoblangan Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari muhokama qilindi. Shuningdek, mazkur kitobdagi g'oyalarning bugungi kunda ham dolzarbligi va ularning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, tarbiya, ta'lim, milliy axloq kitobi.

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ» Абдуллы Авлони — выдающегося деятеля узбекской литературы, просветителя и основоположника узбекской национальной педагогики. Также анализируется актуальность идей, изложенных в этом произведении, в современное время и их значение в системе образования и воспитания.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, «Туркий гулистон ёхуд ахлоқ», воспитание, образование, национальная мораль, книга.

Abstract. This article discusses the work "Turkiy Guliston yoxud Axloq" by Abdulla Avloni, a prominent figure in Uzbek literature, an enlightener, and the founder of Uzbek national pedagogy. It also highlights the relevance of the ideas presented in this book in modern times and their importance in the field of education and upbringing.

Keywords: Abdulla Avloni, Turkiy Guliston yoxud Axloq, upbringing, education, national morality book.

Tarbiyaning ahamiyati insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u barcha davr va jamiyatlarda eng muhim masalalardan biri sifatida e'tirof etib kelinadi. Har qanday jamiyatning kelajagi, uning ma'naviy qiyofasi va barqaror rivoji avvalo yosh avlodning qanday tarbiya topishiga bog'liqdir. Tarbiya nafaqat insonning xulq-atvorini shakllantiradi, balki uning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini

belgilab beradi. Shu bois qadim zamonlardan boshlab mutafakkirlar, pedagoglar va adiblar tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratib, uni komil insonni voyaga yetkazishning asosiy omili sifatida talqin etganlar. Ayniqsa, Sharq ma'rifatparvarlari asarlarida axloqiy tarbiya, odob-axloq me'yorlari va insoniy fazilatlar masalasi yetakchi o'rin egallaydi. Ana shunday bebaho meroslardan biri jadid pedagogikasining otasi deya e'tirof etiladigan shaxs Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridir. Unda tarbiya masalasi chuqur va har tomonlama yoritilgani sababli bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan muhim manba hisoblanadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham o'z fikrlarini bayon etgan: "Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning asriy qadriyatlarimiz asosida yaratgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari sharqona tarbiyaning noyob qo'llanmasi sifatida bugungi kunda ham o'zining qadri va ahamiyatini yo'qotgan emas" [2.227].

Abdulla Avloniy, umuman olganda, jadidchilik harakati tarixi chuqur tadqiq qilgan olim Begali Qosimov bu kitob haqida quyidagicha ma'lumot beradi: "1913-yil Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bosildi. 1917-yilda ikkinchi marta nashr qilindi. Kitob maktablarning yuqori sinf o'quvchilariga darslik sifatida yozilgan"[1.177]. Turkiston o'lkasida "usuli jadid" maktablari faoliyati boshlangandan so'ng, tabiiyki, shu maktablarga mos yangi darsliklarga ham ehtiyoj paydo bo'ldi. Bunday mas'uliyatli ishda Avloniy ham sotib qadam bilan xizmat qiladi va ana shu xizmatlari natijasida biz tahlil qilayotgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari paydo bo'ldi. Bu haqida muallifning o'z tilidan aytilgan quyidagi gaplari fikrimizni tasdiqlaydi: "Men bu asari nochizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylarına taqdim qildim" [1.4]. Adib ushbu asarni yaratishda Sharq ziyolilari, xususan, Alisher Navoiy, Fuzuliy, va Sa'diy Sheroziylarning ma'naviy merosidan keng tarzda foydalandi.

"Turkiy guliston yoxud axloq" eng avvalo jamiyatni ilm va ma'rifat sari yetaklash, milliy qadriyatlarni asrash hamda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirish g'oyasiga xizmat qiladi. Avloniyning bosh maqsadi adabiyot vositasida xalq, ayniqsa, yosh avlod orasida tarbiya, vijdon, ilm, shijoat, intizom singari hayotiy zarur bo'lgan tushunchalarni keng targ'ib qilish bo'lgan. Bundan tashqari, muallif kitobda yaxshi xulqlar bilan birga yomon xulqlarni ham keltirish orqali jaholat, g'azab, hasad, zulm, yolg'on gapirish, adovat kabilarning nimalarga sabab bo'lishini kitobxonlar ommasiga tushuntirib bergan va bu borada hadislardan foydalanilgani asarning qimmatini yanada oshirishga hissa qo'shadi.

Avloniy tarbiyaning doirasini keng tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo‘ymaydi [3.38]. U tarbiyani uch xilda bo‘lishini izohlaydi. Bular:

- Badan tarbiyasi;
- Fikr tarbiyasi;
- Axloq tarbiyasi;

Muallif bu uch turdagi tarbiyaning har birini muhim ekanini ko‘rsatar ekan, qachonki ularning barchasi bir odamda jam bo‘lsa, u kamolotgan yetganidan va jamiyatga naf keltiruvchi bir shaxs bo‘lganidan dalolat berishini ta’kidlaydi. “Tarbiyaning zamoni” qismida bolaga tarbiya dastlab uyda berilishi, ya’ni bu onaning vazifasi ekanligi aytiladi. Zotan, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan maqol o‘z o‘zidan paydo bo‘lmagan. Muallif bola tarbilashning keyingi bosqichi mas’uliyatini ota, muallim va mudarrislarga yuklaydi va buni maktab va madrasa tarbiyasi deya ataydi.

Mutolaa jarayonida asarda tarbiya bilan bir qatorda ta’lim masalasiga ham alohida e’tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Xususan, “Ilm” mavzusiga bag‘ishlangan fikrlarida ilmning inson hayotidagi beqiyos o‘rni chuqur falsafiy mazmunda yoritiladi. “Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur,” [1.28] – deb yozadi. Unda ilm nafaqat dunyoviy taraqqiyotning asosi, balki insonning ma’naviy kamoloti, jamiyatdagi mavqeyi va kelajak hayotining poydevori sifatida talqin etiladi. Muallif ilmni insonni yuksaltiruvchi, uni jaholatdan qutqaruvchi va hayotga ongli yondashishga undovchi muqaddas ne’mat darajasiga ko‘taradi.

Bugungi globallashuv davrida ushbu g‘oyalar yanada dolzarblik kasb etmoqda. Zamonaviy dunyo shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, bilim va malaka har qanday insonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylangan. Axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va innovatsiyalar asrida yashayotgan inson uchun ilm nazariy tushuncha bilan birga amaliy zaruratdir. Endilikda ilmga ega bo‘lgan shaxs nafaqat o‘z hayotini, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilab beruvchi kuchga ega bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, asarda ilgari surilgan ilmga bo‘lgan e’tibor bugungi kun talablari bilan to‘la uyg‘unlashadi. Zero, hozirgi davr yoshlari uchun ham chuqur bilim olish, o‘z ustida muntazam ishlash va intellektual salohiyatni oshirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Ilm orqali inson nafaqat kasb egallaydi, balki mustaqil fikrlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Demak, asarda ta’kidlanganidek, ilm insonni ulug‘lovchi, uni ma’naviy va

moddiy jihatdan yuksaltiruvchi kuch sifatida bugungi zamonda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Aksincha, zamonaviy dunyo sharoitida ilmning qadri yanada ortib, u har bir insonning hayotiy ehtiyojiga aylanganini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 112 b.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
4. Qosimov B. Yusupov Sh. Dolimov U. Rizayev Sh. Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2004. – 296 b.